

**2025-2026-O'QUV YILIDA
IJOD MAKTABLARINING
9-SINF
O'QUVCHILARI UCHUN**

ONA TILI VA ADABIYOT

**FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI
O'TKAZISH BO'YICHA
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**

IX. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Ona tili

1. 7-sinf. Ona tili darsligi. (I-II qism) K. Mavlonova, Sh.Toshmirzayeva, N.Ergasheva, Z. Rashidova. Toshkent–2023.
2. 8-sinf. Ona tili darsligi. (I-II qism) K.Mavlonova, O.Saidaxmedova, K.Marasulov, N.Matnazarova, N.Rasulov, M.Xomidova, T.Yandashova. Toshkent – 2024.
3. 9-sinf. Ona tili darsligi. Sh.Abduraimov, M.Siddiqov, S.Atayeva, D.Israfilov. Toshkent – 2025.

Adabiyot

1. 7-sinf. Adabiyot darsligi. Sh.Sirojiddinov, B.Karimov, Sh.Rizayev, Sh.Turdimov, I.Adizova, A.Tilavov, D.Yusupova. Toshkent – 2021.
2. 8-sinf adabiyot darsligi. J.Nurmuhammadov, S.Qambarova, O.Olimjanov, M.Yuldasheva, S.Inomjonova. Toshkent – 2022.
3. 9-sinf adabiyot darsligi. (I, II qism) J.Nurmuhammadov, S.Qambarova, O.Olimjanov, M. Yuldasheva, S. Inomjonova. Toshkent – 2022.

Javob: _____

6. (B – 5 ball) Uyushiq bo‘laklar orasida, shuningdek, kirish so‘z va kirish birikmalardan so‘ng qaysi tinish belgisi ishlatiladi?

Javob: _____

7. (B – 5 ball) Agar so‘z-gaplar (umuman) kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ulardan so‘ng qaysi tinish belgisi ishlatiladi?

Javob: _____

8. (B – 5 ball) So‘zlovchining o‘z fikriga qo‘shimcha munosabatini bildiradigan so‘zlarni ajratish uchun qaysi tinish belgisi ishlatiladi?

Javob: _____

9. (B – 5 ball) So‘roq va undov mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, mazkur belgilardan so‘ng qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?

Javob: _____

10. (B – 5 ball) Uyushiq bo‘laklar guruh-guruh tarzida ifodalanib, bir guruh so‘zlar boshqa guruh so‘zlardan ajratilganda guruhlar orasiga qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?

Javob: _____

3-SAVOL

1. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *qoʻl uchida* (10 ball)

Javob:

b) *ogʻzining tanobi qochgan* (10 ball)

Javob:

2. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *almisoqdan qolgan* (10 ball)

Javob:

b) *andarmon boʻlmoq* (10 ball)

Javob:

3. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *arining iniga choʻp tiqmoq* (10 ball)

Javob:

b) *baland oxurdan yem yeb oʻrgangan* (10 ball)

Javob:

4. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *dard ustiga chipqon boʻldi* (10 ball)

Javob:

8. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *paytavasiga qurt tushmoq* (10 ball)

Javob:

b) *gapga to‘n kiygizmoq* (10 ball)

Javob:

9. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq* (10 ball)

Javob:

b) *jazavasi tutmoq* (10 ball)

Javob:

10. (Q – 20 ball) Iboralarni izohlang, har bir ibora ishtirokida gap tuzing.

a) *pixini yorgan* (10 ball)

Javob:

b) *labini tishlamoq* (10 ball)

Javob:

4-SAVOL

1. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Kampirning nevaralariga hayhaylashi, bolalarning quvnoq qahqahasi, ustiga kichkintoylarni chiqarib olgan Asliddinning jo‘rttaga voyvoylashi ochiq darvoza osha ko‘chaga eshilib turardi.

Javob:

2. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Qorani oqlash emas, Oqni qoralamaslik adolatdir.

Adolat haqiqatni aytish va tinglashdan boshlanadi...

Javob:

3. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Aksiga olib yomg‘ir shivalay boshladi. Avvaliga tomchilab turdi-da, keyin shiddat bilan yog‘ib ketdi.

Javob:

4. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Qancha ko‘p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko‘radi, ona tilida yig‘laydi... O‘limi oldidan onasini ona tilida yo‘qlaydi...

Javob:

5. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Olimlar kompyuterni inson miyasidan andoza qilib yaratgan. O‘ylaydi. Hisob-kitob qiladi. Muammoni yechadi. Xulosa chiqaradi. Eslab qoladi...

Javob:

6. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Ba‘zilar “halol va harom” deganda “yeb-ichish mumkin bo‘lgan va yeb-ichish mumkin bo‘lmagan” narsani anglaydilar...

Bilasiz: non eng tabarruk ne‘mat. Biroq nopok yo‘l bilan topilgan non ham harom! “Noningni halollab ye”, degan gap bejiz aytilmagan.

Javob:

7. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Kecha zavoddan olgan maoshini qay biriga yetkazishni bilmay yurgan muhandis bugun ishlab chiqarish ochsa-yu, nest-nobud bo‘lib ketayotgan mevalardan sharbat tayyorlab, boyib ketsa, quvonaman.

Javob:

8. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Osmonda yulduzlar... Navkarlar otining tuyog‘i gursillaydi... Qarasa, yonida Nodirabegim o‘tirganmish...

Xon, shu kuni bo‘lgan hangomani eslab, yana achchiqlanibdi.

Javob:

9. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Charxpalak nolali g‘iyqillab aylanadi. Kaftida suv ko‘tarib, yuqoriga olib chiqadi... Tepaga chiqib olgan suv ortiga qaytmaydi... Charxpalak ham bunga ranjimaydi.

Javob:

10. (Q – 20 ball) Matnda qo‘llangan sodda yasama fe‘llarni morfemik (asos va qo‘shimchaga ajratgan holda) tahlil qiling.

Qadimda zanjirning quvvatini aniqlash uchun eng ojiz halqani sinab ko‘rishar ekan. Negaki, yuzta halqa mustahkam bo‘lgani bilan bittasi nobop bo‘lsa, zanjir xuddi o‘sha yerdan uziladi...

... Bir-biri bilan zanjirdek bog‘langan, orasidan “ola” chiqmaydigan xalqni yengib bo‘lmaydi.

Javob:

5-SAVOL

1. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Hikmatli so‘zlar xonani bezab turgan gul singari ko‘ngilni bezaydi.

Javob:

2. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Umr kitobiga ezgu sahifalarni ko‘proq yozish har bir bandaga nasib etsin.

Javob:

3. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Men katta tanaffusda charxpalakni tomosha qilishni yaxshi ko‘rardim.

Javob:

4. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Qadimgi musavirlar farishtani go‘dak qiyofasida tasvirlagani bejiz emas.

Javob:

5. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Haqgo‘y – qorong‘ida chiroq ko‘tarib borayotgan odamga o‘xshaydi.

Javob:

6. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

G‘ildirakning yaratilishi dunyodagi eng katta kashfiyot bo‘lgan.

Javob:

7. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.
Bir kuni podsho katta o‘rmon chetida chiroyli ohuga duch kelibdi.

Javob:

8. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.
Nonda inson hayoti uchun zarur barcha moddalar bor ekan.

Javob:

9. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.
Tun – xastalar va so‘qqaboslarni sinash uchun Tangri tomonidan yuborilgan elchidir.

Javob:

10. (Q – 20 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.
Odatda odamlar chindan ko‘ra yolg‘onga ko‘proq ishonadi.

Javob:

6-SAVOL

1. (M – 30 ball) Matnni o‘qing.

*Bir bolaning buvasi unga hayot saboqlaridan gapirib shunday dedi:
– Bolaginam, har bir insonning ichida go‘yo ikkita bo‘ri yashaydi. Ular doimo bir-biri bilan kurashadi. Bo‘rilarning biri ochko‘z, badjahl, yolg‘onchi va hasadchi bo‘lsa, ikkinchisi rostgo‘y, mehribon, ochiqko‘ngil va saxiydir.*

Buvasining gaplaridan ta‘sirlangan nabira so‘radi:

- Buvajon, oxirida qaysi bo‘ri yutib chiqadi?*
- Sen qaysi birini ko‘proq boqsang, o‘shanisi yutib chiqadi, – dedi buvasi.*

Matndagi asosiy g‘oya haqida mulohaza yuriting.

Bolaning buvasi aytgan “ikki bo‘ri” haqida xulosa chiqaring.

Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 80–100 ta so‘z orqali ifodalang.

Javob:

2. (M – 30 ball) Matnni o‘qing.

Qadimda ikki aka-uka bo‘lgan ekan. Ikkalasi harchand uringani bilan ishi yurishmas, omadi chopmas ekan. Kunlardan birida aka-ukalar donishmand huzuriga borib, maslahat so‘rabdi:

– Shuncha harakat qilsak ham birimiz ikki bo‘lmaydi. Nima qilaylik?

Donishmand aytibdi:

– Ikkovlaring inoqmisan? Faqat to‘g‘risini gapir!

Aka-ukalar noahil ekanini tan olibdi.

– Ey nodon! – debdi donishmand. – Ikkisi bir bo‘lmaganning qanday qilib biri ikki bo‘lsin?

Matndagi asosiy g‘oya haqida mulohaza yuriting.

Donishmandning aka-ukalarga bergan sabog‘i haqida xulosa chiqaring.

Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 80–100 ta so‘z orqali ifodalang.

Javob:

3. (M – 30 ball) Matnni o‘qing.

Bahorda dehqonning yumushi ko‘payadi. Yerga omoch soladi. Ko‘chat qadaydi. Nihol o‘tqazadi. Sug‘oradi, ozuqa beradi... Vaqtida shudgor qilmasa, ekkani unmaydi. Vaqtida sug‘ormasa, ko‘chati qurib qoladi. Donni nobop yerga sepsa, kuzda och qoladi...

Inson umri ham shunday. Yoshlikda yo‘l qo‘ygan xatosi, bosgan nojo‘ya qadami, bilib-bilmay qilgan gunohi yoshi ulg‘ayganida achchiq “mevasi”ni berishi hech gapmas. ... Dehqon-ku, bu bahorda qilgan xatosini kelgusi bahorda tuzatishi mumkin. Insonga esa yoshlik bir marta beriladi.

Matndagi asosiy g‘oya haqida mulohaza yuriting.

Dehqonning bahordagi mehnati va inson hayoti o‘rtasidagi o‘xshashlikni izohlang. Yoshlikda qilingan harakatlar, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qarorlar insonning kelajak hayotiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi haqida xulosa chiqaring. Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 80–100 ta so‘z orqali ifodalang.

Javob:

4. (M – 30 ball) Matnni o‘qing.

Bir yigit ko‘zlari xiralashgan, ovqat yeganda qaltiraydigan qari otasining izzat-hurmatini bajo keltirmasdi. Bir kuni chol bechora qo‘li titrab, osh suzib berilgan kosasini tushirib sindirdi, buni ko‘rgan kelini nodon so‘zlar aytib, uning ko‘nglini vayron qildi. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko‘chirdi. Kelin esa eri keltirib bergan yog‘och kosada qaynotasiga ovqat bera boshladi.

Matndagi asosiy g‘oya haqida mulohaza yuriting.

Yoshlarning keksalarga bo‘lgan munosabati kelajak avlod tarbiyasiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi haqida xulosa chiqaring.

Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 80–100 ta so‘z orqali ifodalang.

Javob:

6. (M – 30 ball) Matnni o‘qing.

Odam hamma narsaga to‘yishi mumkin. Boylikka... Amalga... Shon-shuhratga... Xudoning o‘zi kechirsin-ku, hatto... hayotga ham... Qarib churiganida “Omonatingni ola qol, Yaratgan Egam” deydiganlar chin dildan gapiradi...

Odam hamma narsaga to‘yishi mumkin. Faqat bir narsaga – Mehrga to‘ymaydi. Bu masalada shoh-u gado barobar.

Holbuki, dunyoda bundan arzon narsa yo‘q. Bir og‘iz shirin So‘z, bir chimdim Mehr kimni o‘ldiribdi! Biz esa shuni ham bir-birimizdan ayaymiz...

Matndagi asosiy g‘oya haqida mulohaza yuriting.

Mehr-oqibat, yaxshi muomala va shirin so‘zning insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashdagi o‘rni haqida xulosa chiqaring.

Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 80–100 ta so‘z orqali ifodalang.

Javob:

7. (M – 30 ball) Matnni o‘qing.

O‘ng qo‘ling berganini chap qo‘ling bilmasin, degan gap bor. Birovga yaxshilik qilib, javobini kutish – tamagirlik.

Shunaqa-ku... Boshiga og‘ir kun tushganida yonida turgan, ko‘maklashgan, dardiga hamdard bo‘lgan odamlaring sening boshingga sinovli kunlar tushganda

yaqiningga yo‘lamasa, og‘ir botmay iloj yo‘q. Qiziq, shunday pallada, ko‘pincha, sendan biror manfaat ko‘rmagan, hatto yetti uxlab tushingga kirmagan odamlar yoningga yetib kelib, suyanchiq bo‘ladi.

... Dunyoning ishlarini tushunish qiyin...

Matndagi asosiy g‘oya haqida mulohaza yuriting.

Hayotda ba‘zan yordam bergan odamlar qiyin paytda yonimizda bo‘lmasligi, aksincha, biz kutmagan insonlar yordam qo‘lini cho‘zishi mumkinligi haqida xulosa chiqaring.

Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 80–100 ta so‘z orqali ifodalang.

Javob:

8. (M – 30 ball) Matni o‘qing.

Haqgo‘y qorong‘ida chiroq ko‘tarib borayotgan odamga o‘xshaydi. Uning chirog‘i olamni munavvar qilmasligi mumkin. Biroq dillarga dalda beradi, umid uyg‘otadi... Haqgo‘y olis-yaqindan ko‘rinib turishi shundan.

Afsuski, chiroq ko‘targan odam ko‘p qoqiladi...

Matndagi asosiy g‘oya haqida mulohaza yuriting.

Nima uchun haqiqatni aytadigan insonlar ko‘pincha qiyinchiliklarga duch kelishi haqida xulosa chiqaring.

Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida 80–100 ta so‘z orqali ifodalang.

Javob:

– A?.....

Javob:

4. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

... O'tlar orasida ham: “sevimli”, “botir”, “hurkak” va “yovuz” hamda boshqa har xillari mavjud edi. Chaqirtikan, masalan, – eng birinchi dushman. Bola u bilan kuniga o'n martalab jang qilgan, chopib tashlagan. Lekin bu jangning oxiri ko'rinmasdi – chaqirtikan hadeb o'saverar va ko'payaverardi. Mana, daladagi pechakgullar, to'g'ri, ular ham yovvoyi, shunga qaramay bular eng aqlli va quvnoq gullardir. Ular ertalab quyoshni hammadan ortiq yayrab qarshi oladi. Boshqa o'tlarga – tong nima, tun nima, baribir. Pechakgullar esa kun ilishi bilanoq ko'z ochadi, kulib boqadi. Oldin bir ko'zini, keyin ikkinchisini ochadi, shundan so'ng bag'ridagi barcha gullar birin-ketin ochila boshlaydi. Oq, och ko'k, binafsha va yana har xil rangda...

Javob:

5. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

... Qirg'oqqa chiqarib, qantarib qo'yilgan baliqchilarning qayiqdari dengiz jonivorining taram-taram suyaklariga o'xshar, oq qum uzra ular go'yoki ulkan nahang skeleti kabi tasavvur uyg'otardi. Bunday ob-havoda ochiq dengizga chiqishga har kim ham jur'at etolmas, to'g'rigo'i, bittagina ko'chadan iborat bu qishloqning odamlari hatto nomigagina bo'lsin ko'chaga chiqishmasdi. Sohil bo'yidan esayotgan izg'irin ufqqa tomon yastangan bo'shliqlarda vahshatli quyundek charx urarkan, qishloqliklar issiqqina uylarida bexavotir choy ichishardi. Ular bunday kunlarni “nord kunlari” deb atashardi...

Javob:

6. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

9. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

... Onam, asosan, non bilan kartoshka jo'natardi. Ahyon-ahyonda bankaga tvorog solib berverardi. Buni u birovdan nimagadir almashtirib olgan, albatta, chunki o'zimiz sigir boqmas edik. Kelgan kuni ko'zimga bir dunyo ko'ringan narsadan ikki kun o'tmay hech vaqo qolmas edi. Ittifoqo, onam yuborgan non sirli ravishda g'oyib bo'layotganini sezib qoldim. Atay kuzata boshladim ham: ha, bugun bor-u, ertasi o'z-o'zidan yo'q bo'lib qolardi. Kartoshka ham shu tarzda kamayib borardi...

Javob:

10. (B –10 ball) Ushbu parcha qaysi asardan olingan? Asar va uning muallifi haqida qisqacha ma'lumot yozing. (20 – 30 ta so'z)

... Ko'zgu oldida o'tirib sochiga taroq soldi.
– Otang olamdan o'tganda, – ohista so'zlashdi oyisi, – men uzoq vaqt sochimni tarashga qo'rqib yurdim... Taroq sochimga tegdi, deguncha beixtiyor o'yga cho'mar, o'tmishni eslab ketardim. Xuddi dadang yonimda-yu, soch tarashdan to'xtashimni kutib turganday tuyulardi. Qo'rqqanimdan qaltirab ketardim.
Oyisida otasidan qolgan ovqatni yeb qo'yish odati bo'lgani kimikoning esiga tushdi...

Javob:

Adabiyot

8-SAVOL

1. (Q – 25 ball) Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asaridan keltirilgan ushbu parcha haqida o'z fikringizni 40 – 50 ta so'z orqali ifodalang.

...Malika Bahodirning eshikka yana xavotir bilan ko'z tashlab qo'yganini ko'rdi-yu, kinoyaomuz iljaydi: “Bu nevaram bo'shroq, ayg'oqchisi ham ko'p ekan, sir berib

qo‘ysa, juvonmarg bo‘ladi, men ham niyatimga yetolmayman”, dedi o‘zicha va ko‘nglidagi qaltis niyatni unga bildirmay gapni boshqa yoqqa burdi:

– Bizga shunchalik sodiq ko‘ringan odamlar hozir dushmanlarimizga xizmat qilyapti-ya! E, bevafo dunyo! Malikdod Koroniy ham, oshpazlar ham hammasi sotilgan! Lekin sen... dushmanlar bilan til uchida murosa qil-u, dilingni otangga sodiq tut!

– Hali ham shunday, buvijon! – pichirlab dedi Bahodir.

Javob:

2. (Q – 25 ball) Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asaridan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

...Munshi gilam ustiga cho‘kka tushib, juzdonni tizzasiga qo‘ydi, qog‘ozni kafti bilan tekislab, yozishga tayyorlandi.

Bobur badiha ohangida gapirdi:

–Berdi senga Sind-u Hind-u mulki bisyor.

Issiqlig‘iga gar senda yo‘qdur toqat,

Sovuq yuzin ko‘ray desang, G‘azni bor.

Mushoiraning nozik qoidalariga moslab birpasda yaratilgan bu badiha Hindubekning zavqini keltirdi... Bobur otgan o‘qining nishonga tegganini shu zavqli kulgidan sezdi-yu, yengil bir so‘lish olib, munshiga buyurdi.

– Badihani uch nusxa ko‘chiring. Bir nusxasini Xo‘ja Kalonbekning ketidan jo‘natsinlar. Hindubek, bir nusxasini siz olib, Kalonbekning baytini o‘qigan bek-u navkarlarga bering. Ko‘rsinlar-chi, mushoirada kim g‘olib?..

Javob:

3. (Q – 25 ball) Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” romanidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

U qancha do‘q-po‘pisa, haqorat qilmasin, mening ham javobim faqat bitta bo‘ldi:

– Men dushman bo‘lmagan bo‘lsam, nimani o‘ylayman?.. Nimani aytaman?

– Sening ashaddiy dushmanligingning bitta belgisi shundaki, hattoki sen sovet chekistlarini yolg‘onchi qilmoqchi bo‘lasan, ularga ham ishonmaysan.

– Yo‘q!.. Men chekistlarni eng fidoyi, davlat va vatan manfaatidan o‘zga manfaatni o‘ylamovchi, eng halol odamlar deb hisoblaganman.

– Ammo men tergovchiga nima javob qilmay, har bitta so‘zimni aksini aytib, mendan dushman chiqarmakka intilardi...

Javob:

4. (Q – 25 ball) Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asaridan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

... Xo‘sh-po‘shi yo‘q, – dedi qizishib qolg‘an Kalonshoh, – biravning ustiga ayb qo‘yish uchun, shar‘an shohidlar lozim, da‘voni isbot qilish kerak... Xax-xax-xax, sen falonchi gunohkor bilan do‘st eding, deb kishini ayblash. Masalan, ushbu da‘voni qilg‘uchi o‘zingiz ham ularning maslahati ustida bo‘lmag‘ansiz; faqat shundaymikin, degan mulohazada so‘zlaysiz, holbuki, sizning so‘zingizning shar‘an to‘rt pullik qiymati yo‘q, uka...

Kalonshoh juda qizishib ketdi, “shar‘an so‘zingizning to‘rt pullik qiymati yo‘q, uka” tahqiri bilan mulla Abdurahmon ham bo‘zarib oldi.

– Menim so‘zim bir mulohaza, taqsir, mulohaza shar‘an isbotka buyurilmag‘an. Hokazo, o‘zingiz aytkanча, go‘yo masnad uchun jon otib yurg‘an Sultonalinинg zohir harakatiga ham ishonib bo‘lmaydir...

Javob:

5. (Q – 25 ball) Xayriddin Sultonovning “Saodat sohili” qissasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

Bobur sergak tortib, eshik og‘asiga qaradi:

— *Kim ul? Qaydin kelibdir?*

— *Toshkanddin, olampanoh. Siz zoti shariflarini ziyorat etmoq orzusida kelibdir! “Toshkanddin?..”*

Endi faqat tushlarida ko‘radigan, olislarda armon bo‘lib qolgan yurtidan Boburni ko‘pdan buyon biror kimsa yo‘qlab kelmagan edi. Ko‘ngli allanechuk to‘lib:

— *Ayting, kirsin! — dedi. So‘ng Ko‘histon va hind javohirlari, asl afg‘on yoqutlari bilan ziynatlangan taxtdan turib, o‘z mavqelariga ko‘ra tizilishib joy olgan arkoni davlatga bir-bir razm soldi. Yo‘g‘on gavdali, siyrak mo‘y Abulvohid Forig‘iyga ko‘zi tushgach:*

— *Mavlono Forig‘iy, — dedi ohista, — bu zot kim bo‘lsa ekan? Sizning hech eshitganingiz bormi?*

Javob:

*Sirdaryo bo'yida bor kuchingizni —
Musht qilib qaytaring qonli Chingizni!*

Xorazmshoh (asabiy)

Amir Badriddin?!

Badriddin

Hayronman shunga,

Hayronman valiahd Jaloliddinga.

Javob:

*Olam shahanshohga tom kamarbasta,
Bu nima?.. Chingiz-u Chingiz...
payvasta?!*

Cho'llarning bo'risi sherga ne qilur?

Behayo bir gado elga ne qilur?

O'ttiz yil damo-dam qiblayi olam,

Xasmlar qasдини qiloldi barham.

Chunki shioridir: tavakkal —Olloh.

8. (Q – 25 ball) O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanidan keltirilgan ushbu parcha haqida o'z fikringizni 40 – 50 ta so'z orqali ifodalang.

... Har qadam qo'yanimda biqinimga yangidan pichoq sanchilar, ko'z o'ngim qorong'ilashib, a'zoyi badanimdan sovuq ter chiqib ketayotganini o'zim sezib turardim. O'ng qo'lim ham sirqillab og'riyotganini endi bildim. Bundan chiqdi, tutqich tepganida biqinim aralash qo'limga ham urilgan-u, qiziq ustida sezmaganman.

– Akam kelsalar, siz bilan traktor haydaganimni aytaman! –Olimjon qo'ltig'imga kirib harsillab borarkan, to'xtovsiz gapirardi. – Akamga aytaman, Robiya opam ham sizga o'xshagan qahramonlar, deyman...

Javob:

9. (Q – 25 ball) Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinası” romanidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 50 – 60 ta so‘z orqali ifodalang.

... Ali Qushchi hayrat bilan ustodiga qaradi.

– Bularni ne qilamen, vallomat?

– Senga boylik kerak emas. Buni bilamen. Ammo bu dur-u javohirlarni boya men aytgan yaxshi tilak yo‘lida ishlatursen?..

... – Men sendan abadulabad rozimen, – dedi. – Agar-chi diydor ko‘rishmoq nasib etmas, rozi bo‘lg‘aysen, o‘g‘lim.

U bu kun ikkinchi bor Ali Qushchiga “o‘g‘lim”, dedi.

– Faqir ham rozimen, ustod, toabad rozimen...

Javob:

10. (Q – 25 ball) Sadridin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

... – Men xoh haftada bir marta soch oldiray, xoh ikki oyda bir, buning sizga hech bir aloqasi yo‘q. Mening sochim xoh o‘sib ketgan bo‘lsin, xoh o‘smagan bo‘lsin, siz bir marta ustara urasiz, uzun soch uchun ikki marta ustara ishlatmaysizki, mehnatingiz ortiq sarf bo‘lsa. Agar men soch oldirish haqini boshqalardan ko‘ra kamroq bersam, bu to‘g‘rida shikoyat qilishga haqingiz yo‘q, chunki o‘zingiz ko‘rib turibsizki, boshimning yarmisi sochsizdir va siz u yerga hech bir ustara urmaysiz...

Javob:

9-SAVOL

1. (Q – 25 ball) Murod Muhammad Do‘stning “Dasht-u dalalarda” hikoyasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang. *...Xadicha yoningda yotganida o‘lim yodingga tushsa ham qo‘rqmaysan: xotining bor, bolang bor, tepangda – xudo, e, bir gap bo‘lar-da, deb o‘ylaysan. Xadicha bo‘lmasa qiyin ekan. Endi uning siyog‘i ham esdan chiqqanday: bechora salga shamollardi, shamollab dimog‘i chippa bitganida pishqirib bezor qilardi, huda-behuda chiroq yoqardi, ivirsib g‘ashingga tegardi, lekin baribir borligi durust edi...*

Javob:

2. (Q – 25 ball) Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

4. (Q – 25 ball) Ahmad A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o'z fikringizni 40 – 50 ta so'z orqali ifodalang.

... Birdan bo'lsa-da, odamning xayoliga ko'p narsa kelar ekan: hamma boshqa, men boshqa bo'lib qoldim, odamlar orasidan chiqib, boshqa dunyoga o'tib ketdim, lekin shu dunyoda yashayman, shu dunyoda odamga o'xshab yuribman, lekin odamlarga o'xshamayman, hamma rosmana odam, men esa atrofimga qarayman, hu, ana, tosh bo'lsa ham, haykalning soyasi bor, daraxtlarning tagi quyuc ko'lanka, ko'chada mashinalarning soyasi yonida hilpirab ketyapti, trolleybus simlariniki ko'chani chizib ketgan, simyog'ochniki yo'lga ko'ndalang, Barotning soyasi o'zi bilan, qadam bossa, u ham odimlaydi, qo'lini silkitsa, u ham qimirlaydi!..

Javob:

9.5. (Q – 25 ball) Sharof Boshbekovning "Temir xotin" komediyasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o'z fikringizni 40 – 50 ta so'z orqali ifodalang.

(Alomat nigohini bir nuqtaga qadaganicha jim o'tirardi.) Olimtoy lekin ja savob ish qilyapti-da. Rakatopsin. Mana, xotin-xalaj, bola-chaqa olti oylab daladan beri kelmaydi. Na dam olish bor, na bayram bor, ertadan-kechgacha – ish, ish, ish! Qor demaydi, yomg'ir de-maydi. Buyoqda issiq qirq bo'lsa, g'o'zaning ichida ellik! E, temir bo'p ket-e, haliyam chidar ekan odamzod! (Xijolatli.) "Temir" deganimga xafa bo'lmang tag'in, og'zimdan chiqib ketdi-da... Olimtoy shularni ko'rib chidolmadi. Odamlarning og'irini yengil qilaman, deb kechalari uxlamaydi. O'ziga-o'zi

7. (Q – 25 ball) Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” hikoyasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

... So‘ng kechgacha shu yerda o‘tirdi, otasi va bola-chaqasining ham ruhiga tilovat qilgan bo‘ldi. Keyin uyga qaytib, eshiklarni qulfladi-da, soyga tushib bordi.

Uning yoqasi bilan yurib, qosh qarayganda, suv oqib chiqayotgan tog‘ betiga yetdi... Shunda Inod bosh olib ketib, qayerda ham yashashi mumkinligi haqida o‘ylab qoldi.

Inod bir necha oydan keyin Egamberdining o‘shandagi niyati nima ekanligini payqadi. Lekin bu vaqtda uning ko‘nglida qolgan ikki sevgilisi – qishlog‘i-yu maktabi yana tomir otib ulgurgan edi.

Javob:

8. (Q – 25 ball) Isajon Sultonning “Qismat” hikoyasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

... Umr bo‘yi ota deb yoningga yaqinlasholmadim, bir bola bo‘lib bag‘ringda erkalangim kelsa-da, haybatingdan-u o‘shqirishingdan cho‘chidim, toki o‘n ikki yoshimga yetguncha meni ko‘tarib tomga otib yuborishingdan qo‘rqardim, bir marta

10. (Q – 25 ball) Nabi Jaloliddinning “Ota” hikoyasidan keltirilgan ushbu parcha haqida o‘z fikringizni 40 – 50 ta so‘z orqali ifodalang.

...Yaxshi, – dedi Hamidullo sekingina, – kamchiligimiz yo‘q.

– Unda urishmaynar. Xudoga shukur deb yashaynar. Bo‘lma-sa, uyinardan baraka qochadi. Yana tag‘in bizi urug‘imizda bunaqa janjalkashlar yo‘q, – chol bir muddat jim qoldi. – O‘g‘lim, yana bir marta xotiningga qo‘l ko‘tarsang, men sendan qattiq ranjiyman, bo‘ptimi?

O‘g‘il yerga qaragancha boshi bilan tasdiq ishorasini qildi. Kelin esa qaynotasining faqat o‘g‘ligagina tanbeh berganidan adoyi tamom bo‘lgandi – buning o‘rniga yana bir shapaloq yesam mayliydi, deya qaqqshab turardi...

Javob:

10-SAVOL

1. (M – 40 ball) Alisher Navoiyning quyidagi ruboiysini diqqat bilan o‘qing va nasriy bayonini yozing.

Eldin qochib, ulki, tutsa tog‘ ichra qaror,

Sovug‘da yeri bu tog‘ning jayfida g‘or.

Issig‘da makoni andakim, yotmish qor,

Olam elining shahlig‘idin bor anga or.

Ruboiyda insonning jamiyatdan uzoqlashib, odamlar orasida yashashdan qochishi tasvirini izohlang.

Jamiyatdan chetda qolish yoki odamlar bilan hamjihat yashashning ahamiyati haqida mulohaza yuriting.

Fikrlaringizni 80–100 soʻzdan iborat izchil va mantiqiy matn shaklida yozing.

Javob:

2. (M – 40 ball) Alisher Navoiyning quyidagi ruboiysini diqqat bilan oʻqing va nasriy bayonini yozing.

Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,

Har vaʼdaki, aylasa, vafodur anga shart.

Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,

Olligʻa nekim kelsa, rizodur anga shart.

Ruboiydagi “faqr”, “fano” va “rizo” tushunchalarining maʼnosini ochib bering.

Bu fazilatlarining bugungi kunda ham inson uchun qanchalik muhimligi haqida mulohaza yuriting.

Fikrlaringizni 80–100 soʻzdan iborat izchil va mantiqiy matn shaklida yozing.

Javob:

3. (M – 40 ball) Alisher Navoiyning quyidagi ruboiysini diqqat bilan o‘qing va nasriy bayonini yozing.

*Kim ko‘rdi ekin jahonda oyo xushluq,
To bir kishi aylagay tamanno xushluq?
Yuz yilcha agar bir o‘lsa paydo xushluq,
Omodadur yonida yuz noxushluq.*

Ruboiyda inson hayotidagi xursandchilik va qiyinchiliklar o‘rtasidagi bog‘liqlik qanday ifodalanganini izohlang.

Inson nega qiyinchiliklarni sabr bilan yengib o‘tishi kerakligi haqida mulohaza yuriting. Fikrlaringizni 80–100 so‘zdan iborat izchil va mantiqiy matn shaklida yozing.

Javob:

6. (M – 40 ball) Alisher Navoiyning quyidagi ruboiysini diqqat bilan o‘qing va nasriy bayonini yozing.

*Farzand ato qullug‘in chu odat qilg‘ay,
Ul odat birla kasbi saodat qilg‘ay.
Har kimki atog‘a ko‘p rioyat qilg‘ay,
O‘g‘lidin bu ish anga siroyat qilg‘ay.*

Shoir nima sababdan ota-onaga ehtirom ko‘rsatish inson uchun saodat, ya’ni baxt keltirishini ta’kidlayotganini izohlang.

Bu g‘oya hayotda qanday namoyon bo‘lishi mumkinligi haqida mulohaza yuriting. Fikrlaringizni 80–100 so‘zdan iborat izchil va mantiqiy matn shaklida yozing.

Javob:

7. (M – 40 ball) Alisher Navoiyning quyidagi ruboiysini diqqat bilan o‘qing va nasriy bayonini yozing.

*Kim egri erur, tuzluk emas poyasi ham,
Bor o‘zudek egri sud-u sarmoyasi ham.
Tuzluk ermas shifosi-yu voyasi ham,
Kim, egri kishining egridur soyasi ham.*

9. (M – 40 ball) Alisher Navoiyning quyidagi ruboiysini diqqat bilan o‘qing va nasriy bayonini yozing.

*Ko‘b oltun, kumush sori qo‘l sunmog‘il
Ki, tutsang kafingni qaro rang etar.
Ko‘ngulda dog‘i maylini asrama,
Ki ko‘nglungni dog‘i ham ul zang etar.*

Oltin va kumushga haddan tashqari berilib ketish inson qalbi va axloqiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini qanday badiiy obrazlar orqali ifodalaganini izohlang.
Moddiy boylikka ortiqcha berilish inson qalbini “zang” bosishi, ya’ni ma’naviy jihatdan yomonlashishiga olib kelishi haqida mulohaza yuriting.
Fikrlaringizni 80–100 so‘zdan iborat izchil va mantiqiy matn shaklida yozing.

Javob:
